

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-2>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Murodova Mo'tabar Ibodullayevna TILAKLAR VA OLQISHLARNI NUTQIY AKTLAR SIFATIDA LINGVISTIK NUQTAI NAZARDAN TAHLILI...	5
2. Yusupova Soxiba Islombek qizi O'ZBEK BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI.....	9
3. Lolayeva Gulniso Geldiyorovna GAZETA MATNINING UMUMIY VAZIFALARI.....	13
4. Sharopova Ra'no, Karimova Latofat HOZIRGI O'ZBEK TILIDA "TARBIYA" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TARKIBI VA TASNIFIQA OID QARASHLAR.....	18
5. Намазова Манзура Ураковна ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ И ЧАСТИ ИММИГРАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.....	24
6. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	32
7. Esirgapov Mukhiddin Nizomiddinovich THE INFLUENCE OF THE INTERNET AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE ENGLISH LANGUAGE.....	37
8. Karimova Dilorom Shavkatovna VERBAL AND NON-VERBAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF "DEATH" AND "LIFE".....	43
9. Narzullaeva Dilnoza Sanatovna CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: EXPLORING THE ROLE OF METAPHOR IN CONCEPTUALIZING ABSTRACT CONCEPTS.....	48
10. Шахзод Турниязов ЎЗБЕК ТИЛИГА ҚИЛИНАЁТГАН ЗАМОНАВИЙ БАДИИЙ ТАРЖИМАЛАРДА МУАЛЛИФ УСЛУБИНИ САҚЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР (О. ГЕНРИ ХИКОЯЛАРИ МИСОЛИДА).....	52
11. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna XALQ OG'ZAKI IJODI VA MIFOLOGIK MANBALARDA UCHRAYDIGAN FITONIMLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	63
12. Алена Ялмагиевна Иванова ВЛИЯНИЕ КОНФУЦИАНСТВА НА ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИЙ.....	68
13. Yunusova Gulshoda Dilshadovna EKVIVALENTLIK VA FE'L VALENSIYASI.....	80
14. Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH METODOLOGIYASI.....	85
15. To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi PEYZAJ BADIY VOSITA SIFATIDA (O'ZBEK VA QORAQALPOQ SHE'RIYATI MISOLIDA).....	91
16. Холбобоева Нилуфар Бахтиёр кизи НАВОИЙГА ТАХМИС.....	96
17. Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич И. ЮСУПОВНИНГ «ДАЛА АРМОНЛАРИ» ПОЭМАСИДА ИНДИВИДУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА БАДИИЙ ВАЗИФАЛАРИ.....	102
18. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	106
19. Xolova Muyassar Abdulhakimovna O'ZBEK SHEVALARIDA FONETIK O'ZGARISHLAR (Surxondaryo viloyati misolida).....	111
20. Malika Soliyeva INGLIZ TILIDAGI INTONATSIYANING AYRIM FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI.....	118
21. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ ХУСУСИДА.....	122


22. Xurinisа Xudoyberdiyeva TROPLARNING USLUBIY XUSUSIYATI (Xosiyat Rustamova lirikasi misolida).....	128
23. Israilova Sayera Tashpulat qizi INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (Tarix yo‘nalishi talabalari uchun).....	133
24. Israilova Sayera Tashpulat qizi INGLIZ XALQ ERTAKLARI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.....	137
25. Робиға Мамбєтова ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	143
26. Ҳамидулла Тоджиев ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ УМУММАЪРИФИЙ – УМУМАДАБИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	148
27. Ergashova Rano Turaevna LINGUISTIC FEATURES OF AVIATION TERMINOLOGY IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES: SPECIFICITIES AND COMMONALITIES.....	154
28. Bobir Maxammadov MIKROSOFT VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI MASALALARI: MUAMMOLAR VA VAZIFALAR.....	164
29. Xalimova Firuza Rustamovna POETIK MATNDA BADIY KONSEPTLAR VA METAFORALARNING KOGNITIV-ESTETIK TALQINI.....	170
30. Matluba Shukurova ЭНАХОИ СИДДИҚОВА ШЕЪРИЯТИДА “АЁЛ” КОНЦЕПТИНИНГ АКТУАЛЛАШУВИ.....	176
31. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTI SEMANTIK MAYDONIDA PEYZAJNING IFODALANISHI (S. MOEM HIKOYALARI MISOLIDA).....	184
32. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	189
33. Vaxidova Gulnoza Amonovna HOFIZ O‘BAHIYNING “TUHFAT UL-AHBOB” LUG‘ATIDA LUG‘AVIY BIRLIKLARNING IZOHLANISHI..	199
34. Мажитова Сабоҳат Ҳамиловна АБДУРАҲМОН ЖОМИЙ ҲАЗАЛИЁТИДАГИ ДИНИЙ-ИРФОНИЙ АНТРОПОНИМЛАР.....	207



Vaxidova Gulnoza Amonovna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Tojik filologiyasi va xorijiy sharq tillari kafedrasida tayanch doktoranti

HOFIZ O'BAHIYNING "TUHFAT UL-AHBOB" LUG'ATIDA LUG'AVIY BIRLIKLARNING IZOHLANISHI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17162232>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Hofiz O'bahiyning "Tuhfat ul-ahbob" lug'atidagi lug'aviy birliklarning sharhlanish usullari, xususan, sinonimlar yordamida izohlash tamoyillari tahlil etilgan. Asarda so'zlarning semantik izohlari gap, so'z birikmasi va matn shaklida berilishi bilan birga, sinonimik qatordagi birliklar vositasida ham tushuntirilgani aniqlanadi. Muallif Hofiz O'bahiy murakkab va kamyob so'zlarning ma'nosini sodda, ammo aniqlik keltiruvchi usullar bilan bayon etishga intilgan. Qolaversa, maqolada sinonimlarning leksikografik ahamiyati, ularning uslubiy, semantik va qo'llanish darajasiga ko'ra farqlanishi tahlil qilingan. "Tuhfat ul-ahbob" nafaqat tarjimon va tilshunoslar uchun, balki tarixiy leksikani o'rganayotgan tadqiqotchilar, badiiyat shaydolari uchun ham muhim manba sifatida qadrlanadi. Sinonimik izohlar orqali ma'no jilolarining ochib berilishi mazkur asarning leksikografik o'rganishlardagi tutgan o'rnini yanada kuchaytiradi.

Tayanch so'zlar: Hofiz O'bahiy, "Tuhfat ul-ahbob", sinonim, so'zlik, bosh so'z, lug'at, sinonimik qator, keksikografiya.

Gulnoza Amonovna Vakhidova,

PhD researcher, Department of Tajik Philology and Foreign Eastern Languages, Samarkand State University named after Sharof Rashidov

EXPLANATION OF LEXICAL UNITS IN HAFIZ OBAHI'S DICTIONARY "TUHFAT UL-AHBOB"

ANNOTATION

This article examines the principles of lexical explanation in Hafiz Obahi's dictionary "*Tuhfat ul-ahbob*", with particular focus on definitions based on synonyms. The research reveals that in addition to explanatory phrases and sentences, synonymic equivalents are widely used to clarify meanings of rare or complex words. The author emphasizes Hafiz Obahi's efforts to convey nuanced meanings through familiar or related lexical units, thereby facilitating reader comprehension. Moreover, the article discusses the stylistic and semantic distinctions among synonyms, underscoring their function in enriching lexicographic clarity. The study also highlights how synonym-based explanations serve as a linguistic strategy in classical Persian-Tajik lexicography. "*Tuhfat ul-ahbob*" is thus regarded not only as a historical dictionary, but also as a valuable source for researchers interested in the evolution of semantic interpretation and lexicographic methodology. This approach remains relevant in contemporary lexical studies and offers insights into historical linguistic thought.

Keywords: Hafiz Obahi, "Tuhfat ul-ahbob", synonym, glossary, headword, dictionary, synonymic series, lexicography.

Гульноза Амоновна Вахидова,

Соискатель степени PhD, кафедра таджикской филологии и восточных иностранных языков, Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

ТОЛКОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В СЛОВАРЕ ХАФИЗА ОБАХИ «ТУХФАТ УЛ-АХБОБ»

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются особенности объяснения лексических единиц в словаре Хафиза Убахи «Тухфат ул-ахбоб», с особым акцентом на синонимические толкования. Автор анализирует случаи, когда значения слов передаются посредством синонимов, а не только через описательные фразы и предложения. Обнаружено, что такой метод позволяет более эффективно передать смысл редких или устаревших лексем. Также рассматриваются стилистические и семантические оттенки синонимов, их роль в лексикографии и различия в употреблении. Отмечается, что данный способ интерпретации не только облегчает понимание текста, но и демонстрирует высокий уровень лингвистической культуры автора словаря. «Тухфат ул-ахбоб» оценивается как важный историко-лексикографический памятник, актуальный для исследователей истории языка, перевода и семантики. Синонимические толкования придают словарю особую научную ценность и методическую глубину.

Ключевые слова: Хафиза Убахи, «Тухфат ул-ахбоб», синоним, словарь терминов, заглавное слово, словарь, синонимический ряд, лексикография.

So‘zlarning gaplar vositasida izohlanishi (yoki batafsil sharh). Ma‘lumki, ko‘pgina mumtoz leksikograflar lug‘aviy birliklar ma‘nosini oydinlashtirish uchun ularning sinonim, antonim, variantdosh so‘zlari, muqobil – tarjimalari hamda so‘z birikmasi, gap va matn shaklidagi izohlar, shuningdek, ayrim hollarda ensiklopedik lug‘at maqolasiga o‘xshash batafsil izohlardan foydalanishgan. Jumladan, Hofiz O‘bahiyning “Tuhfat ul-ahbob” lug‘atidagi batafsil izohlangan bir guruh lug‘aviy birliklar ham ensiklopedik izohni yodga soladi [1; 21]. So‘z birikmasi, gap va matn vositasidagi bu kabi izohlanishda bosh so‘zning ma‘nolarini har tomonlama ochib berishga harakat qilingan. Hofiz O‘bahiy mazkur lug‘atida lug‘aviy birlikning bunday izohlanishi ko‘proq kuzatiladi. Muallif bu borada izohlanayotgan birlikni to‘liq yoritishga harakat qilib, o‘z maqsadiga erishgan ham. Negaki bu so‘zlarning ko‘plarini bilmagan taqdirda ham o‘quvchida bosh so‘z haqida tasavvur hosil bo‘ladi. So‘zimiz isboti uchun lug‘atdan bir necha misol keltiramiz:

Buzhon – arabchada “g‘ibta” (havas, orzu qilish)dir, ya‘ni kishida yaxshi narsani ko‘rganda, hasadga xilofi o‘laroq, bu narsaning o‘sha kishidan yo‘qolmagan holda, unda ham bo‘lishni (u kishiga o‘xshashni) xohlash [6; 37].

Bum – biri, viloyat (go‘sha)dir, boshqasi, Yer (quruqlik)ni ham ataydilar, yana biri, katta qush (boyo‘g‘li, boyqush)kim, kechasi uchadi va ov qiladi, kunduzi esa ucha olmaydi, chunki hech narsani ko‘rmaydi. Katta boshi bor va mushuknikiga o‘xshash qulog‘i va yorqin keng ko‘zlari mavjud. Shoir aytadi:

Гови мискин зи кайди Димна чӣ дид,
В-аз бади зоғ бумро чӣ расид [39].

Tarjimasi:

(Bechora ho‘kiz Dimna qafasidan ne ko‘rdi,
Qarg‘aning yomonidan boyo‘g‘liga ne yetdi).

Buluch – nihoyatda aqlsiz (to‘pori), sahroyi qavm bo‘lib, karvonlarni talaydilar va ko‘pincha tirandozlikda mohir (mergan) bo‘ladilar, ularni “ko‘chu buluj” ham deydilar [38].

Burun – qiziq lafzdir, aytadilar: “buruni tu in kor kardam”, ya‘ni sen uchun, go‘yoki “az bahri tu kardam” (seni deb qildim) degandek. Shoir aytadi:

Ёд кун зерат андарун тохта,

Чу бурун хор хобонида ситон.
 Чаъди мўён-т чуғдакада хама
 Ба баранда бурун ту биситон [39].

(Qaramlarningni tikan ichra yotqizib sudrab, soching o‘ramlari barcha vayrona, etganlardan o‘zingga o‘lja undirmoqni o‘rgan).

Damxasinus – Uzroni Manqalusdan o‘g‘irlab, shu tufayli maqsadiga yetgan savdogar edi. Unsuriy aytadi:

Дили Дамхасинус шуд ношикеб,
 Ки дар кори Узро чй созад фиреб [53].

(Uzroning ishida ne nayrang qilsam deb, Damxasinusning dili betoqat bo‘ldi).

Devlox – salqin joy, uylov va obodliklardan uzoqdagi o‘tloq, lox esa mavze (joy) ma’nosidadir, ya’ni devlar makoni, binobarin, qofiya ilmida aytilganidek, sanglox (toshloq – toshlar makoni) va devlox (devlar makoni) ikkalasining qofiyada kelishi yaramaydi. Unsuriy aytadi:

Чарандаи девлох оганда пахлў,
 Ба тан фарех миён чун мўй лоғар [54].
 (O‘tloq o‘txo‘rlari biqinlari to‘q,
 Tani semiz, beli – ingichka sochdek).

Darevos – eshik va devorning mustahkam bo‘lishi uchun eshik atrofida yog‘ochdan yasalib o‘rnatilgan moslama bo‘lib, eshikni ushlab turadi. Ro‘dakiy aytadi:

Девору даревос фуру гашту баромад,
 Бим аст, ки якбора фуруд ояд девор [54].

(Devor va darevos quladi-yu chiqdi, devorning to‘satdan qilashi qo‘rqinchlidir).

Zarang – tog‘da o‘sadigan nihoyat qattiq daraxtkim, hech qanday mevasi bo‘lmaydi va o‘tinga yaraydi, agar uning olovi (cho‘g‘i) ko‘mib qo‘yilsa, o‘n-o‘n besh kungacha so‘nmaydi. Shoir aytadi:

Чунон бигирям, агар дўст бори ман надихад,
 Ки хора хун шавад андар шаху заранг зуғол [66].
 (Shunday yig‘layinki, do‘st bermasa menga dastur,
 Kim tog‘dagi tosh qon bo‘lsin, zarang esa ko‘mir).

Istarang – yabruh (jenshen) daraxt (o‘simlig)idir, Chin yurtida yerdan odamga o‘xshab o‘sadi. Uning mevasi ham odam suratida bo‘lib, kimki bu daraxtni ildizidan uzsa, darhol o‘ladi hamda uni “abru hussanam”, shuningdek, “mardumgiyoh” ham deyilar. Shoir aytadi:

Хинд чун дарёи хун шуд, Чин чу дарёбори ў,
 3-ин қабал рўяд ба Чин бар шибхи мардум **истаранг** [79].
 (Hind qon ummoni bo‘ldi – Chin bu yomg‘ir manbayi,
 Shu sabab Chin yurtida **jenshen** o‘sar mardum kabi).

Kurok – oq va qora rangli (ola) birmuncha qo‘nimsiz (“shayton”) qush bo‘lib, uzun dumini bor va suv qirg‘og‘ida turib dumini likillatadi (pirpiratadi). Shahidiy (?) aytadi:

Чунон андешад ў (ў) аз душмани хеш,
 Ки бози тезчангол аз куроко [93].

(U o‘z dushmani haqida o‘tkir tirnoqli burgutdek kurokuni o‘ylaydi).

Miyovar va Minovar – ikkalasi ham Xitoy va Xo‘tanga yaqin shaharning nomi, balki Xo‘tanga yondoshdir. U yerlik qul va kanizaklardan go‘zallar chiqadi, shuningdek, derlarki, butxonadir [101].

Okij – temir ilgak bo‘lib, suvchilar uni yog‘och uchiga bog‘lab, u bilan muzxonadan muz chiqarib oladilar yoki soladilar va ba’zilar aytganki, uchida temir bo‘lgan yog‘och bo‘lib, u bilan jang maydonida va urush vaqtida raqibni o‘zlariga tortadilar. Unsuriy aytadi:

Бичустанд торочу зиштешро,
 Ба окич гирифтанд киштешро [131].

(Izladilar urush va yomonligini, Okij-la oldilar ekkanlarini).

Keltirilgan illyustrativ misra ma’nosidan bu asbobning o‘roq, cholg‘i kabi o‘rim ish qurollarga o‘xshashi anglashiladi.

Nasnos – to‘rt ko‘zli, qizil yuzli, qanotlari uzun patlari yashil tusli Hind o‘lkasida uchraydigan jonivor bo‘lib, uni hind ahli qo‘y kabi ovlab yeydi [116].

Nihol – daraxt ildizidan chiqqan yangi va yashil novda, shuningdek, yangi o‘tqazilgan kichik daraxt deganlar. Unsuriy aytadi:

Ба як моҳ боло гирифт он ниҳол,
Фузун з-он, ки дигар дарахтон ба сол [123].
(Boshqa daraxt yilda o‘sgandan ko‘proq,
Yuksak bo‘yni oldi bu nihol oydayoq).

Polvoya – qora va oq rangli, chumchuqdek kichik va qisqa oyoqli qushdir, doimo havoda uchadi hamda yerga qo‘nsa, qiyinchilik bilan qo‘zg‘aladi, balki tura olmaydi. Aytadilarki, uning ozuqasi havodir va qaldirg‘ochga o‘xshaydi. Unsuriy aytadi:

Обу оташ ба ҳам наёмезад,
Полвоя зи хок бигрезад [146].
(Suv bilan o‘t qachon birlashar?!
Polvoya tuproqdan qiladi hazar).

Polezbon – xonandalar aytadigan ohang (kuy)ning nomi; yana bog‘bonni ham ataydilar. Shoir aytadi:

Равнақи полез рафт акнун, ки булбул ними шаб,
Бар сари полезбон камтар занад полезбон [146]
Polizning fayzi ketdi endi, bulbul tunyarim,
Bog‘bon boshida kamroq kuylasin polizbon).

Som – o‘tmishdagi pahlavonkim, Rustam va Zol uning naslidan edi va uning qissasi mashhurdir [167].

Son – (qayroq) toshkim, u bilan pichoq va qilichni o‘tkiraydilar; arabchada uni “misan” deydilar. Daqiqiy aytadi:

Хуршед теғи тези туро об медиҳад,
Миррих нўки найзаи ту сон кунад ҳаме [167].
(Quyosh sening o‘tkir tig‘ingni toblaydi,
Mirrix nayzang uchun qayraydi doim).

Susmor – rosu (latcha)ga o‘xshash jonivordir, lekin latchadan yo‘g‘onroq bo‘ladi va uning yog‘idan ayollar semirish uchun iste‘mol qiladilar, arabchada esa uni “zab” va “safan” ham deydilar. Ro‘dakiy aytadi:

Сусмор парвардаву бигдохта //
Сўс парвардаву пий бигдохта,
Хуб дармони занонро сохта [169].
(Susmorni boqib, yog‘ini eritib,
Ayollar uchun yaxshi darmon qilgan).

Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, “Farhangi zaboni tojiki” (FZT)da “rosu” so‘ziga “Kalila va Dimna” matnidan misol keltirilgan [7; 145]. “Kalila va Dimna”ning bir necha o‘rnida suvsarlar oilasiga mansub bu hayvon “latcha” deb tarjima qilingan. “Lug‘atnoma”da ham susmor aynan suvsar ma‘nosida keltirilgan. Shundan seziladiki, susmor ham suvsar so‘zining o‘zgargan shakli (?) bo‘lishi mumkin. Negaki FZTda “susmor” kaltakesaksimon sudraluvchi – echkemar deb keltirilgan [7; 278].

Tox – o‘tin yog‘ochi o‘rniga yoqiladigan daraxtdir. Farruxiy shoir aytadi:

Ишқ оташи тезу ҳезуми тоҳ манам,
Гар ишқ бимонад ин чунин вой танам [179].
(Ishq o‘tkir otash-u tox o‘tini men,
Agar ishq shunday qolsa, voy tanam).

Changaluk – qo‘l va oyoqlari qiyshiq kishini aytiladilar, shuningdek, xastalikdan g‘amgin bo‘lib, qo‘lini tizzasiga qo‘yib, bukilib o‘tirgan kishini ham “changaluk” deydilar. She‘r:

Эй ғуки чангалук, чу пажмурда барги кук,
Хоҳй ки чун чакук бипаррй сўи ҳаво [208].
(Ey boymoq baqa, so‘ligan ko‘katdeksan,

Chittak kabi havoga uchishni xohlaysan).

So‘zlarning sinonimlarini keltirgan holda izohlash. Tilning lug‘aviy tarkibida shunday so‘zlar mavjudki, ular turli xil shaklga ega bo‘lsalar-da, bir xil yoki bir-biriga yaqin ma‘noni ifodalaydilar. Tilshunoslikda bunday so‘zlar sinonimlar deyiladi.

Bir umumiy ma‘noga bo‘lgan (denotativ ma‘nosi bir xil), qo‘shimcha ma‘no ottenkasi, uslubiy bo‘yog‘i, qo‘llanishdagi xususiyati va sh.k. belgilari bilan farqlanadigan so‘zlar sinonimlar bo‘lib [8; 88], ularning sinonimik qatordagi so‘zlarni izohlashdagi o‘rni beqiyos. Negaki, mumtoz lug‘atlarda kam qo‘llanadigan sinonimlarni izohlash va, xususan, qisqa matnda ko‘p ma‘noni ifodalashi leksikograflar uchun juda qo‘l kelgan.

Ma‘no ifodasiga ko‘ra sinonimlarni ma‘nodosh va yaqin ma‘noli sinonimlarga ajratish mumkin. Ma‘nodosh sinonimlar uslubiy munosabati jihatidan farq qiladi, ammo boshqa hollarda bir-biriga o‘xshaydi. Masalan, “o‘lmoq”, “vafot etmoq”, “ko‘z yummoq” so‘zlari ma‘nodosh bo‘lsa-da, uslubiy munosabati jihatidan farq qiladi. “O‘lmoq” umumiy iste‘moldagi birlik sifatida barcha hollarda – ham insonga, ham boshqa predmetlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Ammo “vafot etmoq” va “ko‘z yummoq” kitobiy uslubga mansub. Qolaversa, “vafot etmoq” va “ko‘z yummoq” faqat insonga nisbatan qo‘llanilib, boshqa predmetlarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Binobarin, “Falonchi o‘ldi”, “Sigir o‘ldi” deyish mumkin, ammo “Sigir vafot etdi” deyish mutlaqo mumkin emas. Ma‘nodosh yaqin sinonim so‘zlarning bir qismi o‘rtasida kattaroq, boshqa qismi o‘rtasida esa kichikroq ma‘noviy farq kuzatiladi. Masalan, “*зиррифтан*” “olmoq”, “*ситондан*” “o‘zlashtirmoq” (kuch bilan olmoq) va “*рабудан*” “yulqib olmoq” (o‘g‘irlab olmoq) so‘zlari yaqin ma‘noli sinonimlarga mansub bo‘lib, biror narsani qo‘lga kiritishning umumiy ma‘nosiga o‘xshaydi, lekin bu ma‘noning tafsilotlarini bayon qilishda ular o‘rtasida nozik farq bor: “olmoq” bu ma‘noni oddiy tarzda, “tortib olmoq” zo‘rlilik bilan olishni, “yulqib olmoq” esa tez, chaqqonlik bilan sezdirmay olishni anglatadi.

Qayd qilish lozimki, ba‘zi sinonimlar ma‘no ifodalashda teng bo‘lsa-da, ularning har biri ma‘noni o‘ziga xos xususiyat bilan ifodalaydi. Sinonimlar lug‘aviy ma‘nolar soni, ma‘no jilolari yoki uslubiy xususiyatlari va nutqning u yoki bu turiga mansubligi, yoxud iste‘mol darajasi yoki boshqa so‘zlar bilan sinonimik qator hosil qilish imkoniyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, “asr, qarn, sada”, “qizil, ahmar, arg‘uvon”, “ish, mehnat, mashg‘ulot” sinonimlar zanjir (sinonimik qaror) ini birinchi guruhga kiritish mumkin, chunki bu sinonimik qatorning so‘zlari umumiy ma‘nosidan tashqari boshqa lug‘aviy ma‘nolari, ma‘no jilolari bilan ham bir-biridan farq qiladi. Bu ma‘noda “asr, sada, qarn” sinonimik qatorining so‘zlarini misol keltiramiz. “Asr” so‘zi quyidagi ma‘nolarga ega: 1) qarn, sada; 2) peshin va shom oralig‘idagi vaqt. “Sada” so‘zi quyidagi ma‘nolarda qo‘llaniladi: 1) asr, qarn; 2) yuz kishilik guruh; 3) bayramlardan birining nomi, lekin “qarn” so‘zi hozirgi tojik adabiy tilida faqat “asr, sada” ma‘nosida mashhur. “Asr, sada, qarn” sinonimlarining ifodalagan ma‘nolarni kuzatish shuni ko‘rsatadiki, bu so‘zlardagi ma‘nolar soni bir xil emas va ular faqat bir ma‘noda (yuzyillikni ifodasida) sinonimlar bo‘lib, ma‘no jilolari bilan bir-biridan farq qiladilar. “Ro‘y, chehra, ruxsora, liqo, siymo, shakl, aft, bashara, sumot” sinonimik qator so‘zlari ikkinchi guruhga mansubdir, chunki “chehra”, “ruxsora”, “siymo”, “liqo” so‘zlari ijobiy va salbiy hissiy-ta‘sirchan jilolarga ega, lekin “ro‘y” so‘zi neytral ma‘nolidir:

Моҳ чун чеҳраи зебои ту нест...

Мушк чун зулфи диорои ту нест. Avhaduddin Anvari.

(Oy sening go‘zal chehrangdek emas,

Mushk sening diloro zulfingdek emas).

Jumladan, Hofiz O‘bahiyning “Tuhfat ul-ahbob” lug‘atida ham shunday lug‘aviy birliklar borki, sinonimlari vositasida izohlangan. Masalan, **Abramon** – pushaymonlikdir [20].

Avbor – biror narsani tomoqdan o‘tkazmoq (yutunmoq)dir. Ro‘dakiy aytadi:

Ба дашт ар ба шамшер бигзорадам,

Аз он беҳ ки моҳӣ биявборадам [20].

(Dashtda agar meni shamshirdan o‘tqizsa, bundan baliq yutib yuborgani yaxshi).

Chaman – ochiq daraxtzor hamda bog‘ va gulzor o‘rtasidagi yo‘l; dala kabi har tomonida daraxtlar ekilgan, o‘tirish uchun o‘rtasida maydon qoldirilgan joy, garchi uning uchun gul ekilgan yoki ekilmagan bo‘lsa ham [208].

Charx – uch ma‘nosi bor: 1. falak. 2. qattiq kamon. 3. libos (chopon) yoqasi [209].

Chag‘z – “vaqu voq” va qurbaqadir, shuningdek, vag‘az, g‘unjumus, qosh, makal, buzag‘ ham ataydilar, toziyda esa “g‘unjo‘y” deydilar. Abulfath Bustaiy aytadi:

Ҳарчанд ки дарвеш писари фағ зояд,
Дар чашми тавонгарон ҳама чағз ояд [211].
(Garchi darvesh fag‘ o‘g‘il tug‘sa-da,
Ulug‘lar ko‘zida doim baqa kelur).

Shoygon – oyliksiz (tekin) ishdir, aslida esa shohgon bo‘lgan, ya‘ni shohlarga loyiq narsa bo‘lib, bir qancha ma‘nodadir. Aytadilar: ganji shoygon, ya‘ni to‘la xazinakim, unda ko‘p boylik mavjud. Shoirlar esa ko‘plikdagi qofiyani “shoygon” shu munosabat bilan qo‘llagan bo‘lib, bunga o‘xshash qofiya juda ko‘p uchraydi [224].

Bundan chiqdi, tojik tilidagi **roygon** – tekin xizmat, tekin narsa” so‘zining etimologiyasi ham **raiyat** – “xalq, fuqaro” so‘zlaridan hosil bo‘lgan va “fuqarolarga loyiq, ularga oid ish, vazifa” kabi ma‘nolarni anglatgan degan “etimologik” qarashga kelish mumkin.

Shohvard va Shoyvard – har ikkisi, bug‘ bo‘lib, oy tegrasida bulut kabi qalqon bo‘lib kiradilar, ayrimlar uni “saroycha” desalar, toziylar “hola” deb ataydilar. She‘r:

Ба хатту он лабу дандон-ш бингар,
Ки ҳамвора маро доранд дар тоб,
Яке ҳамчун паран дар авч хуршед,
Яке чун шоҳвард аз гирди маҳтоб [225].
(Xati-yu ul lab-u dandoniga boq,
Kim doim meni tutar bu qiynoq.
Biri Kun avjiga misli qanotdek,
Biri Oy tegrasidan qo‘rg‘ondek).

G‘alpa – toziyda “aq‘aq” bo‘lib, u kalog‘ (qarg‘a) kabi qushdir, ammo undan kichikroq; uzun dumi bor, uning rangi qora yo oq bo‘lib, uni kaloja va kalcha ham deydilar, “akka” (olaqarg‘a) nomi bilan shuhrat topgan [230].

Haykal – toziyda “hay‘at” deydilar, ya‘ni kishilarning kelbati, shuningdek, pahlaviy tilida butxona va bahorxonani aytadilar, she‘r:

Чунон дон, ки ин ҳайкал аз паҳлавӣ,
Бувад номи бутхона, гар бишнави [240].

(Shunday bilkim, bu haykal pahlaviydan, Butxona nomidir, gar eshitsang).

Hang – olti ma‘nosi bor: biri, saqlamoq va tashvish bo‘lmoq, yana “hush” ma‘nosidadir, yana donolikdir, yana shak (shubha, gumon) ma‘nosida kelgan, yana ichadigan suv ma‘nosida va yana kuch ma‘nosidadir [241].

Raxsh – to‘rt ma‘nodadir, biri aks, boshqasi kamalakni aytadilar, boshqasi ikki rangli, ya‘ni qizil va oq ola. Firdavsiy aytadi:

Бибахшой бар ман, ту эй додбахш,
Ки аз хуни дил гашт рухсора рахш [151].
(Menga bag‘ishla, sen ey adolatbaxsh,
Kim yurak qonidan yuz bo‘ldi raxsh).

Sakna – tipratikandir, rovaro ham deydilar, inchunin, tashiy, mazango‘, huju, behan va go‘la ham aytadilar...

So‘zlarning sinonimlar vositasida izohlanishi. Hofiz O‘bahiyning “Tuhfat ul-ahbob” lug‘atida shunday sinonimlar ham borki, o‘z navbatida, ular lug‘atni boyitgan. Masalan: **Xinkbed** – tikandir. Ro‘dakiy aytadi:

Тани хингбед арча бошад сафед,
Ба тарриву нармӣ набошад чу бед [201].
(Xinkbet tanasi garchi oq bo‘lsa-da,

Ho'llig-u namlikda tol kabi emas).

Toroj – talon-torojdir. Daqiqiy aytadi:

Донй, ки дили ман кй фикандаст ба тороч,
Он ду хати мушкин, ки падида омадаш аз оч [179].
(Bilsang, mening yuragim yag'moga tushgan,
U ikki mushkin xatkim, ko'rinib fil suyagidan).

Pora – rishvatdir. Unsuriy aytadi:

Ҳар он чо, ки пора шуд аз дар дарун,
Шавад устуворй зи равзан бурун [147].
(Qayerdakim, pora kirsar eshikdan,
Tenglik-u adolat chikar teshikdan).

Ma'lumki, pora so'zining "parcha, bo'lak, siniq" kabi ma'nolari ham mavjud, shu bois matnda iyhom san'atini ham vujudga kelgan, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, sinonimlar nafaqat biror ma'noni ifodalashda, balki ijodkorga ma'noviy mo'ljalni to'g'ri olib, badiiy ta'sirchanlikni oshish hamda qofiya ta'lablariga amal qilishda ham ko'maklashadi.

Shu bilan birga, lug'atda berilgan bir qancha lug'aviy birliklarning sinonimlari, jumladan: tirok – taroq [178], sanglox – sangiston [158], pora – rishvat [147], alchaxt – tama [22], ax-ax – hasrat va pushaymonlik [25], baro'shanon – ummat [29], basov – sovidan (qayramoq) [29], bato – biguzor [90], bimorg'anch – bemornok (kasalmand) [32], behuda – nohaq va botil [33], bodfaroh va bodafroh – bodfara [24], bol – bulol (bilol) [36], boragiy – asp (ot) [36], Varazro'd – Movarounnahr [41], varrifon – shafe' (shafatchi) [42], vashang – hallojlar mili [43], vijagon (ويژه گان) – xosagon (xoslar) [44], galiza – sabu (qadah) [47], gard – gardun (falak) [48], gast – zisht (xunuk) [48], dajogoh – tund (tez) [52], dashna – xanjar [56], dodosh – duo va otash [58], duraxshon – tobon (porloq) [60], duxt – duxtara (qiz) [60], do'xchakod – asla' (kal, taqirbosh) [61], jukur – zuft (xasis) va baxil [63], zabun – asir [64], zeb – neko'i va zinat (yaxshilik va ziynat) [67], zishtiyod – g'aybat (g'iybat) [68], zugob//zukob – hibr (qoralik, qora rang) [70], kazo'g' – bo'yintumor [75], kalayk va kulak – ahval (shabko'r) [76], kando – faylasuf, muhandis va dono [78], kanorang – mulk hokimi, marzbon (qorovul) [79], kappiy – buzina (maymun) [79], kar – tavon, quvvat va murod (kuch-quvvat va maqsad) [79], kashovarz – dehqon [82], kahbala va kahla – ablah va nodon [83], kayor//kiyor – kohili (dangasalik) [83], koj – ahval (so'qir) [86], kono – ablah va beaql [87], kof – shikof [88] kosha – yaxi tunuk (yupqa muz qatlami) [89], kog'-kog' – bong (sado) [89], kuda – maloza; (ar.) lahot (tilcha) [90], kundovar – dono va daler [91], kunom – shabgoh, oromgoh (in, uya) [92], kuno'r – ra'd (yashin) [92], kunusdur – nokas [94], ko'tvol – qal'ador (qutvol – qal'a hokimi) [95], ko'shk – manzara [96], lamolam – molomol (limmolim) [96], lach – lagad (tepki) [98], kahbala va kahla – nodon va ablah, kiyor//kuyor – kohiliy (tanballik), kog'-kog' – bong (sado), zugob//zukob – hibr (qorong'ulik, qora rang), bodfaroh va bodafrah – bodfara (yomonlikning jazosi) [26], basug'da va basechida – ikkisi ham soxta (yasalgan) va omoda (tayyor) ma'nosida [29], afrand – farru zeboyi va shuko'hi zindagoni (karru far va hayot hashamati – mazmuni) [20], avrang – baxt, izzu shuko'h (shonu shavkat) va taxt [25], sarf – surfa va suol (savol) [160], tabira – duhul (nog'ora) [171], falj – g'alaqai dar (g'aladon) [184], farxanj – nasib (nasiba, taqdir) [187], xuro'h – xuro's [205], g'aras – xashmu tundi (qahru g'azab) [233], yakbasiy – yakboragiy (birmartalik) [229], omeg' – omezish (qo'shilish, qotilish) [131], osmona – saqfi xona (shift) [133], panohida – panoh karda (yashiringan) ham tojik tili leksik imkoniyatlarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Lug'aviy birliklarning sharhlanish usullaridan biri sinonimlar vositasida izohlash bo'lib, biz dissertatsiyamizda bunga to'xtaldik. "Tuhfat ul-ahbob" lug'atida eng asosiy izoh usulidan sanalgan so'z birikmasi va gaplar vositasida izohlash barobarida sinonimlar vositasida izohlashga ham keng o'rin ajratilgan. Negaki sinonimlar leksikografiyada tillarning leksik boyligini ko'rsatish bilan bir qatorda ma'nodosh bosh so'zlarni izohlashda ham xizmat qiladi. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, sinonimlari mavjud so'zlarni har doim ham sinonimlari bilan izohlab bo'lmaydi, negaki ayrim so'zlarning ma'nosi tavsiflanish – batafsil izohlanishga muhtoj. Boisi sinonimlar matnda turli ma'no tovlanishlarni ifodalashga ham xizmat qiladi, bular esa maxsus tushuntirishga ehtiyoj sezadi,

ayniqsa, bosh soʻzning semantik, stilistik xususiyatlari, qoʻllanish doirasi, boshqa birliklardan farqlanish xususiyatlari sinonimlar vositasida izohlanganda ochiqdanmay qoladi. Masalan:

Fartut – juda soʻlgin boʻlib qolgan (qartaygan, munkillagan) qari. Roʻdakiy aytadi:

Пири фартут гашта будам сахт,
Боз гаштам ба рӯзи барной [187].
(Qarib qartaygan edim juda,
Yana qaytdim yoshligimga).

Mazkur leksik birlikni “pir” (qari) soʻzi bilan izohlash bu birlikning “juda qari, qarib munkillagan, qartaygan” kabi salbiy maʼno ottenkalarini izohlashda yetarli boʻlmaydi, shu bois ham leksikograflar soʻzlarning koʻplab sinonimlarini bilishlariga qaramay ularni batafsil izohlashga harakat qilishgan.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, Hofiz Oʻbahiy tomonidan tuzilgan “Tuhfat ul-ahbob” lugʻati nafaqat tarixiy leksikografik yodgorlik sifatida, balki fors-tojik tilshunosligida leksik birliklarning izohlanish tamoyillarini oʻrganishda ham beqiyos manbadir. Mazkur maqolada aynan ushbu asarda soʻzlarga berilgan sharhlarning sinonimik izoh orqali, yaʼni boshqa bir maʼnodosh birlik yordamida ifodalangan hollariga diqqat qaratildi. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, muallif koʻpincha murakkab yoki kamyob soʻzlarning maʼnosini yoritishda ularning yaqin maʼnodoshini keltirib, oʻquvchining idroki uchun qulaylik yaratishga intilgan. Shuningdek, lugʻatda leksik birliklarni izohlashda soʻz birikmasi va sodda gaplardan foydalanilgan hollarda semantik aniqlik, sintaktik shakllarda esa ifoda ravonligini taʼminlangan. Ayniqsa, oʻz zamonidagi adabiy til meʼyorlariga sodiq qolgan holda, muallif oʻz davridagi fonetik va morfologik oʻziga xosliklarni ham saqlab qolgan.

Oʻrganilgan dalillar shuni anglatadiki, “Tuhfat ul-ahbob” nafaqat tarjimon yoki tilshunos uchun, balki til tarixini chuqur oʻrganishga qiziqqan tadqiqotchilar uchun ham zaruriy qoʻllanmadir. Sinonimik izohlar orqali berilgan taʼriflar esa lugʻatshunoslikda oʻziga xos yondashuv boʻlib, bugungi kunda ham leksikografik izlanishlar uchun mustahkam zamin boʻlib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar roʻyxati

1. Joʻrayev I. Sirojiddin Alixon Orzuning “Charogʻi hidoyat” izohli lugʻatining leksikografik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. – Samarqand, 2024. – B. 21.
2. Loghatnâme (Encyclopedic Dictionary). Chief Editors: Mohammad Muin & Jaʼfar Shahidi. – Tehran: Tehran University Publications, 1998-1999. 16 vols.
3. Vaxidova G.A. “Tuhfat ul-ahbob” lugʻati soʻzligining mavzuiy tasnifi // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, taʼlim. – Termiz, 2025. № 1,3. – B. 25–34.
4. Бобомуродов Ш., Мухторов З. Фарҳанги истилоҳоти забоншиносӣ. – Душанбе, 2016. – 428 с.
5. Воҳидов А. Характеристикаи структури-семантикии калимаҳо дар “Ғиёс-ул-луғот”. Дисс. барои дарёфти унвони ном. илмҳои фил. – Душанбе, 1975. – 195 с.
6. Ўбаҳӣ Ҳофиз. Тўҳфат-ул-аҳбоб ё Фарҳанги Ҳофизӣ Ўбаҳӣ. – Душанбе: Ирфон, 1992. – 288 с.
7. Фарҳанги забони тоҷикӣ. Дар зери таҳрири Шукуров М.Ш., Капранов В.А., Ҳошим Р., Маъсумӣ Н.А. – М.: Советская энциклопедия, 1969. Ҷ. 1. – 951 с.; Ҷ. 2. – 949 с.
8. Ҳоҷиев А.П. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 163 б.
9. Воҳидов А. Фарҳангшиносии тоҷикӣ-форсӣ дар асрҳои Х-ХІХ.- Самарқанд, 2018.- 144с.
10. Majitova S. Антропонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти Абдурахмони Ҷомӣ // Farg'ona davlat universiteti. – 2024. – №. 6. – С. 84-84.
11. <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/9094>

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000